

TIL TARIXIDA TAXALLUS TUSHUNCHASI

Avezova DiloVar Salimovna

BuxDU filologiya fakulteti rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

d.s.avezova@journal.buxdu.uz

Annotasiya; Maqolada tilda taxalluslarning paydo bo'lishida muayyan ehtiyojlar sabab bo'lganligi, jumladan, felʼeton va tanqidiy maqola muallifi o'z ism va familiyasini oshkor qilmaslikka intilishi, bu orqali ma'lum ijtimoiy-siësiy, adabiybadiiy qarashlarni kim ëzganini sir tutishi, shuningdek, o'xshash ism, familiyalarning ko'pligi, ayniqsa, ijodkorlar uchun taxallus tanlashga sabab bo'lganligi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit soʻzlar: antroponimiya, belgilar, gapiradigan ismlar, muallifning fantaziyalari, rus yozuvchilarining asarlari, klassitsizm davri.

Taxalluslarning klassifikatsiyasi, mazmuniy xususiyati haqida mulohaza yuritishdan oldin shu sohaqa daxldor ikkita muhim masala ustida to'xtalish zarur. Bular-dan biri — taxallusning paydo bo'lish tarixi va ikkinchisi uning qo'llanish sababidir. Ma'lumki, Eron va Arabistonda islomgacha bo'lgan davrda yozma adabiyot rivojlangan. Eron yozma adabiyotida dastlab ko'rinishlangan proza (saj') paydo bo'lib, uning o'rnini asta-sekin she'riyat egallay boshlagan. VI—VII asrlarda paydo bo'lgan she'riyat arab so'zu uslubiga asoslangan, balki uning o'rnida qushik so'zi ishlatilgan. Manbalarning gu-vohlik berishicha, VIII asr boshidan boshlab “shoiru” so'zi paydo bo'lib, u she'riyatda asosiy tushuncha bo'lib xizmat qila boshlagan. So'nggi yillarda esa, she'riyatda ijodiy ifoda kuchaygan. Misol tariqasida hind eposi “Panchatantra”ning Abdulla ibn al-Muqaffiy tomonidan qayta ishlanganligi va bu asarning “Shohlarning katta kitobi” nomi bilan shuhrat qozonganligini ko'rsatish mumkin. VIII—IX asrlarda poeziya taraqqiy etgan. She'riyatning g'azal, qasida, qit'a, ruboiy kabi janrlari shakllangan va ularning ajoyib namunalar yaratilgan. Xuddi shu davrda Abbos Marvaziy, Abu Hafs Sug'diy

Samarqandiy, Abu Soli Gurgoniy kabi shoirlar paydo bo'lgan va ularning shuhrati uzoq-uzoqlarga tarqalgan.

She'riyat, uning g'azal, qit'a, marsiya kabi janrlari arab yozma adabiyotida inshoot bo'lishi bilan birga rivojlangan. Islomgacha bo'lgan arab she'riyatida esa, she'riyatda qasidachilik maktabining shakllanganligi, Xasan ibn Sobit singari etuk vakillar voyaga yetganligi ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy o'zining qator asarlarida qayd etadi. Shunisi xarakterli-ki, yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlarning aksariyati o'z nomi bilan emas, balki taxalluslari bilan shuhrat qozongan. Abbos ismidan keyin kelgan Marvaziy, Abu Hafsdan so'ng Sug'diy Samarqandiy, Abu Soli-likka qo'shilgan Gurgoniy kabi so'zlar taxallus mazmunida qo'llanilib ijodkorlarning Marvaz, Samarqand, Gurgon shaharlaridan bo'lganligini ishora qiladi.

Arab va Eron adabiyotida taxallus qo'llanishi VII—VIII asrlarda odat tusiga kirgan ekan, bu masalaning fors-tojik va o'zbek adabiyotida qachon paydo bo'lganligi to'g'ri keladi. Tojik adabiyotshunosligida bu mavzu yetuk o'rganilgan dor-diqqatga loyiq anchagina ishlar qilingan. Jumladan, professor E. E. Bertels o'zining “Navoiyning adabiy muhiti” asarida quyidagilarni qayd etadi: “...Taxalluslardan foydalanish XI asrda keng tus olgan, she'r satri oxirida joy olgan bo'lsa-da, avvalgi asrlar she'riyatida ham shoirlarning ismlari yoki taxalluslari zikr etilganini topish mumkin...”.

Tadqiqotchi D.Andaniëzova[4,132]ning aniqlashicha, “Tilda taxalluslarning paydo bo'lishida muayyan ehtiëjlar sabab bo'lganligi, jumladan, felʼeton va tanqidiy maqola muallifi o'z ism va familiyasini oshkor qilmaslikka intilishi, bu orqali ma'lum ijtimoiy-siësiy, adabiybadiiy qarashlarni kim ëzganini sir tutishi, shuningdek, o'xshash ism, familiyalarning ko'pligi, ayniqsa, ijodkorlar uchun taxallus tanlashga sabab bo'lgan”. Lug'atlarda ham taxallusga shu ma'no kasb etgan izohlar berilganini ko'rish mumkin: “Taxallus arabcha so'z bo'lib, xalos bo'lish va qutulish ma'nosini beradi” [10, 601].

Muflisiy XV asrda yashagan o'zbek shoiri, taxallus shoirning ijtimoiy ahvoliga ishora qiladi [11, 312]. Mavlono Kavkabi: “Munajjim yigit durur va o'z faniga munosib taxallus ixtiër qilibdur” [11, 400]. Sakkokiy: pichoqchi bo'lgan, pichoq yasash bilan

shug'ullangan, sakkok – pichoq ma'nosidadur [13, 588]. Mavlono Jomiy “Rayhoniy taxallus qilur erdi... munosabati ila anga Jomiy taxallusi buyurildi. Shayxzodalardandur, taxallusi ham anga dalolat qilur” [11, 351]. Zuloliy: “Zihni sarchashmasidin nazmi zuloli sofi zohir bo'lur jihatdin anga Zuloliy taxallus topildi” [11, 351]. Malik: “O'zin MalikRavzon avlodidan tutar jihatdin Malik taxallus qilur” [11, 353]. Bu-Ali: Devonavor yurur, devona bo'lmasa erdi “Bu-Ali” taxallus qilmas erdi [11, 363]. Laqab va taxalluslar shaxsning asosiy ismi, familiyasiga nisbatan qo'shimcha nom hisoblanadi, bu jihatdan ular yaqinlik va umumiylikka ega. Laqab termini o'tmishda taxallus ma'nosida ham qo'llangan. Ba'zi ijodkor va san'atkorlar o'z laqablarini taxallus sifatida qabul qilganlar. Bunday taxalluslar laqab-taxalluslar deb yuritiladi. Til tarixida taxallus tushunchasi laqab, kunya so'zlari bilan ham ifodalangan, biroq ular boshqa-boshqa birliklar, ularni farqlash lozim. Taxallus lug'aviy birligi asli arab tilidan o'zlashgan bo'lib, “o'zini o'zi qutqarish, ozod qilish, xalos bo'lish” ma'nolarini bildiradi. Keyinchalik uning ma'no-mundariyasi kengaygan hamda ilmiylashgan.

O'zbek adabiyotshunosligida adabiy taxallus masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida atroflicha o'rganilmagan, biroq bu taxalluslarga doir umuman ish qilinmagan, degan xulosaga olib kelmasligi lozim. N.M.Mallaev, V.A.Abdullaev va G'.K.Karimov, A.Qayumovlarning darslik, tadqiqot va monografiyalarida ham taxalluslar to'g'risida qimmatli fikrlar berilgan. A.Xalilbekovning “Namangan adabiy gulshani”, G'ani Majidning “Men bilgan andijonlik ijodkorlar” nomli kitoblari namanganlik, andijonlik shoir va yozuvchilarning taxalluslarini ham adabiy, ham lisoniy jihatdan o'rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Jahon adabiyotshunosligida taxalluslar lug'atlarini tuzish qadimgi davrlardayoq boshlangan. Taxalluslarga oid ilk lug'at 1652 yilda yaratilgan I.Sauersuning “O podpisnyx i znakov, pod koimi skryty istinnye imena” (“Imzolar va belgilar, ular ostida yashiringan haqiqiy ismlar”) nomli ishidir. Keyinchalik Leypsigda F.Geysler “Ob izmeneniyax imen i anonimnyx pisatelyax” (“Ismlarning o'zgarishi va noma'lum yozuvchilar to'g'risida”, 1669), Gamburgda nemis yuristi V.Plaktsiy “Obozrenie anonimov i psevdonimov” (“Anonim va taxalluslar sharhi”, 1674) nomli risolasini nashr etdi. V.Plaktsiyning o'limidan so'ng bu asar Fabritsius (1698) va Milius (1740) tomonidan to'ldiriladi va nashr qilinadi. 1806-1809 yillarda Antuan Barbье frantsuz

taxallus va anonimlarini to'plagan hamda to'rt tomlik lug'at holida nashr ettirgan. Rus filologiyasida ham taxalluslarni o'rganish lug'atlar tuzishdan boshlangan. Bibliograf I.F.Masanov rus yozuvchi, olim va siyosiy arboblarning taxalluslarini to'plagan. Keyinchalik bu ishni P.V.Bikov davom ettirgan. V.S.Kartsov va M.N.Mazaevlar taxalluslar lug'atini tuzish masalasini tadqiq etgan. S.Kolosovning taxalluslar qomusiy lug'atida 2500 ga yaqin rus va boshqa xalqlar, jumladan, ayrim o'zbek siyosiy arbob, olim, ijodkor hamda san'atkorlarining taxalluslariga izoh berilgan. Taxalluslarning turli jihatlari bir qator rus olimlari tomonidan tadqiq etilgan. K.S.Mochalkinaning dissertatsiyasida zamonaviy rus antroponomiyasida taxalluslarning o'rni, taxallus tanlash tarixi, taxallusning lingvistik maqomi, turlari, semantik-funksional xususiyatlari, tuzilish modellari, imloviy va grafik xususiyatlari XVIII-XIX asrlar bo'yicha to'plangan taxalluslar misolida tadqiq etilgan. Bu manbalar jahon, jumladan, rus filologiyasida taxalluslarga qiziqish ancha oldin boshlanganligini va bu sohada ma'lum yutuqlarga erishilganligini ko'rsatadi. O'zbek filologiyasida ilk bor taxalluslar adabiyotshunoslik aspektida Oltoy (B.Qoriev), R.Vohidovlar tomonidan o'rganilgan. B.Qoriev 20-yillardagi vaqtli matbuot sahifalaridan 430 ta taxallusni to'plagan. Bu adabiy taxalluslar lug'atini tuzish sohasidagi ilk qadam edi, biroq bu boradagi ishlar to'xtab qoldi. 80-yillarda o'zbek taxalluslarining lug'atini tuzish muhim vazifalardan biri ekanligi ta'kidlangan bo'lsa-da, hozirgacha bunday lug'at yaratilmadi. O'zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiyning taxalluslari E.Shodiev, I.Haqqullar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida taxalluslar, xususan, taxallusdoshlar, ayrim taxalluslarning paydo bo'lishi, ma'nolari va qo'llanishi haqida ko'plab maqolalar yozilgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmida ko'pgina olimlar o'rtasida taxalluslarning, jumladan, Navoiy, Atoiy va Muhiy taxalluslarining imlosi yuzasidan munozaralar bo'lgan. E.Begmatov o'zbek tili antroponomik birliklari, jumladan, taxalluslarini etnolingvistik hamda lingvistik yo'nalishlarda keng ilmiy tahlil qilgan. N.Husanov Alisher Navoiyning "Majolis-un-nafois" tazkirasida keltirilgan taxalluslarning lug'aviy asoslari va ma'nolarini bergan. Xulosa qilib aytganda, taxallus Sharq mumtoz adabiyotining deyarli barcha namoyandalari, ko'pchilik olimlar va ba'zi siyosiy arboblarning ma'lum taxallusna ega bo'lishgan. Taxallus qo'llashning tilshunoslikda ahamiyati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Авезова Д. С. Псевдонимы, их понятие и репрезентация в художественных текстах //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 423-430.
2. Воронова И.Б. Textoобразующая функция литературных имен собственных: Дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. Волгоград, 2000. — 224 л.
3. Kolosova S. taxalluslarning entsiklopedik lug‘ati.
4. Т. Кораев, Р. Воҳидов. «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1967 йил. 1-сон, 51-58-бетлар.
5. Avezova D. Speaking surnames and their role in the stylistic image of a work of art //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 59-62.